

---

## QONUNCHILIKDAGI YANGILIKLAR



### **Qoida tariqasi, bog'chada oziq-ovqat mahsulotlari va taomlar sifatini o'rganish bo'yicha brakeraj komissiyasi tashkil etiladi**

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 25-iyulda qabul qilingan 626-son "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlantirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" gi qaroriga binoan Mazkur komissiya oshxonaga qabul qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlari va tayyorlanayotgan taomlar sifatini doimiy o'rganib boradi.

O'rganish natijalari alohida yuritiladigan brakeraj daftarlarida qayd etiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti hamshirasi brakeraj komissiyasining raisi bo'lib, quyidagilar komissiya a'zolari hisoblanadi:

tarbiyachi;

oshpaz;

tashkilot kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi;

tarbiyalanuvchilarning ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar vakillari.

### **Shoxrux Sobirov - Rishton tuman adliya bo'limi inson huquqlarini himoya qilish va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish bo'linmasi bosh maslahatchisi**

#### **[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-04-08 15:21:56